



TURIZM SOHASIDA SUVENIRLAR, MAHSULOT TURLARI VA ISTEMOL MAQSADLARI

Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0002-3134-0852

Mahliyoumarova9893@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda va uning samaradorligini oshirishda uning asosiy segmentlarining birdek ahamiyatligi yoritib berilib, nisbatan e'tibordan chetda qolgan yo'nalish muhumliligiga to'xtalib o'tilgan. Manashunday yo'nalish sifatida chakana savdo (suvenirlar) do'konlari tadqiqot obyekti sifatida olinib, har tomonlama o'rganib chiqilgan. Jumladan, unga bevisita va bilvosita ta'sir etuvchi omillar hamda ularning turlari o'rganib chiqildi. Bundan tashqari Turizm sohasining rivojlanishida asosiy o'rin egallovchi segment sifatida qaralib, uning muhumlilikdarajasi o'rganib chiqildi. Suvenir va esdalik sovg'alarning viloyatlar aro turma turligi va o'ziga xosligi o'rganib chiqilib, ular har bir mahalliy manzilgohlarning o'ziga xosligidan kelib chiqilishi tadqiq etilildi. Maqolaning xulosa va takliflar qismida esa chakana savdo (suvenirlar) do'konlari istiqboli uchun yozuvchining o'z fikirlaridan kelib chiqqan holda xulosa va bir nechta takliflari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: turizm segmentlari, transport xizmati, manzilgohlar, mehmondo'stlik sanoati, marketing, suvenir, segment, festival.

СУВЕНИРЫ, ВИДЫ ТОВАРОВ И ЦЕЛИ ПОТРЕБЛЕНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА

Умарова Махлиё Яхшибой кизи

*Международный университет туризма и
культурного наследия «Шелковый путь»*

Аннотация: в данной статье подчеркивается равнозначная значимость его основных сегментов в развитии туризма и повышении его эффективности, а также затрагивается значимость направления, которое было относительно запущено. В качестве такого направления в качестве объекта исследования были взяты и тщательно изучены розничные (сувенирные) магазины. В частности, были изучены факторы, прямо и косвенно влияющие на нее, и их виды. Кроме того, он рассматривался как ключевой сегмент развития туристической сферы и изучалась его важность. Изучено региональное разнообразие и уникальность сувениров, а также изучено, что они происходят из уникальности каждого местного поселения. В заключительно-предлагательной части статьи даются вывод и несколько предложений автора, основанных на его собственных размышлениях, на перспективу розничных (сувенирных) магазинов.

Ключевые слова: сегменты туризма, транспортное обслуживание, населенные пункты, индустрия гостеприимства, маркетинг, сувенир, сегмент, фестиваль.

SOUVENIRS, PRODUCT TYPES AND CONSUMPTION PURPOSES IN THE FIELD OF TOURISM

Umarova Mahliyo

*"Silk Road" International University of
Tourism and Cultural Heritage*

Abstract. *In this article, the equal importance of its main segments in the development of tourism and increasing its effectiveness is highlighted, and the importance of the direction that has been relatively neglected is touched upon. As such direction, retail (souvenir) shops were taken as a research object and thoroughly studied. In particular, factors directly and indirectly affecting it and their types were studied. In addition, it was considered as a key segment in the development of the tourism sector, and its importance was studied. The regional variety and uniqueness of souvenirs was studied, and it was studied that they originate from the uniqueness of each local settlement. In the conclusion and suggestions part of the article, the conclusion and several suggestions of the writer based on his own thoughts for the perspective of retail (souvenir) shops are given.*

Key words: *tourism segments, transport service, settlements, hospitality industry, marketing, souvenir, segment, festival.*

Kirish.

Turizm sohasi keng qamrovli sohalardan biri hisoblanadi va uni yirik va asosiy 4 ta segment tashkil etadi.⁷³ Bu segmentlar quyidagilardir:

- transport xizmati;
- chakana savdo (suvenirilar) do'konlari;
- manzilgohlar va faoliyatlar;
- mehmondo'stlik sanoati (joylashtirish vositalari va ovqatlantirish xizmati).

Yuqorida sanab o'tilgan segmentlar turizm sohasi uchun asos hisoblanadi. Ularning bir vaqtda mavjud bo'lishi turizmni paydo qiladi. Ammo ulardan birining yo'qligi yoki qolgan segmentlarga nisbatan yetarli darajada rivojlanmaganligi butun turizm sohasi rivoji uchun to'siq hisoblanadi. Shuning uchun ham maqsad turizm sohasi yuksalishi bo'lganda uning barcha segmentlarning bir xil darajada yaxshilanishi maqsadga muvofiqdir. Afsuski ko'p holatlarda asosiy etiborni faqatgina manzilgohlar va mehmondo'stlik sanoatiga qaratilganligini hamda transport xizmati va chakana savdo (suvenirilar) do'konlari xizmatiga e'tiborni nisbatan sust ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Ushbu maqolada biz aynan manashu e'tibordan chetda qolayotgan segmentlarni dolzarb mavzu sifatida yoritib bermoqchimiz.

Adabiyotlar sharhi.

Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida ushbu tushunchaga oydinlik kiritish va uning tarkibini ya'ni faoliyat uchun asos bo'ladigan yo'nalishlarni chuqur o'rganish bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar izlanishlar olib borishgan va o'z fikr va muloxazalarini keltirib o'tishgan.

Bir guruh olimlar ushbu tushunchaga ta'rif berishda V. Xunsiker va K. Krapflar talqinidagi turizmning umumiy nazariyasiga tayanadilar: "Insonlarning munosabatlari va ularning yashash joyidan tashqaridagi faoliyati doimiy yashash tarziga aylanmasdan va mehnat haqi olish bilan bog'liq bo'lmagan xolda kun kechirishi natijasida kelib chiqadigan munosabatlar majmuasi" (Tuxliyev, Abduhamidov, 2021).

Manilada 1981-yilda qabul qilingan jahon turizmi haqidagi deklaratsiyada ko'rsatilishicha "Turizm davlatlarning ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy va iqtisodiy sohalariga va

⁷³ Hotel operation management..pdf.

ularning xalqaro munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi jihatidan xalqlar hayotida muhim ro'l o'ynaydigan faoliyat sifatida tushuniladi" (Hayas, Ninemeier, Allisha, 2017).

Butun jahon turistik tashkiloti tomonidan 1981-yilda Madridda tashkil etilgan xalqaro turizm konferensiyasi materiallariga asosan "Turizm bu turli mintaqalar, yangi mamlakatlar bilan tanishish maqsadida amalga oshiriladigan va bir qator mamlakatlarda sport bilan bog'liq bo'lgan faol sayohat turlaridan biridir" (Mamatqulov, 2011).

Turizm sohasining asosiy segmentlaridan biri bo'lmish mehmonxona biznesiga Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti R.S. Amriddinova quyidagi ta'rifni bergan: "Mehmonxona – bu butun kun davomida murakkab texnologik jarayon sodir bo'luvchi bino (yoki binolar majmui) bo'lib, unda mijozlarga nomerlar (yoki nomerlardagi joylar) berilishi, shuningdek mehmonxona mahsulidan shinam, qulay va xavfsiz foydalanishga yo'naltirilgan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilishi kafolatlanadi" (Abdukhamidov, Makhmudova va boshq., 2022).

Joylashtirish vositalarining vositalarining o'zagi bo'lmish mehmonxona nomeriga Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori Tuxliyev (2022) ham quyidagi ta'rifni bergan; "mehmonxona nomeri bu joylashtirish xizmatining asosiy elementi, mehmonlarga dam olish, uxlash, ishlash imkoniyatini yaratuvchi ko'pfunksionalliy joy hisoblanadi".

I.S. Tuxliyevning Turizm nazariya va amaliyot kitobida turizm sohasining yana bir asosiy segmentlaridan biri ovqatlanirish xizmatini mehmonxonalarda quyidagicha bo'lishgan: "Ovqatlanishning turlari- ertalabki nonushta, yarim pansion, to'liq pansion doimo turistik xizmatlar ko'rsatish tarkibida belgilangan bo'ladi" (Po'latov, Amriddinova va boshq., 2022).

Tuxliyevning (2021) Turizm nazariya va amaliyot kitobida turizm sohasining navbatdagi sementiga quyidagi ta'rifni bergan: "Turistlarga transport xizmatlarini ko'rsatish, turistlarni va ularning yuklarini bir joydan ikkinchi joyga mumkinqadar tez va qulay sharoitlarda tashish uchun mo'ljallangan xizmatlar majmuyi".

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot ishi mobaynida qiyosiy taxlil va tizimli, qiyoslash, ekspert baholash kabi ko'plab usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatyapdiki, suvenirlar, esdalik sovg'alar va do'konlar turizm faoliyati rivojida mehmonxona va transport biznesi kabi muhim va asosiy o'rin egallaydi. Chunki suvenirlar va esdalik sovg'alar maxsus daqiqalarni, voqealarni hamda joylarni eslatib turivchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Agarda biz masalaga sayohatchi sifatida qaraydigan bo'lsak, suveirlar va sovg'alarni o'zi va yaqinlari uchun harid qilish sayohatning bir bo'lagi hisoblanadi. Suvenirlarning manzilgohlar uchun ahamiyatligini qaraydigan bo'lsak, ular turli-tuman destinatsiyalarning mahalliy madaniyati va o'ziga xos jihatlari hamda o'zgarmas xususiyatlarini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda suvenirlar va esdalik sovg'alar savdosi mahalliy aholi uchun yaxshi daromad manbai bo'lishi mumkin.

Ko'plab tadqiqotchilar va maqsadli marketing amaliyotchilarining e'tibori bugungi kunda suvenirlar marketingining samarali strategiyalarini ishlab chiqarishga qaratilgan. Jumladan qadoqlash marketingi "jim sotuvchi" sifatida tasvirlangan va istemolchilar e'tiborini jalb qilishda muhim ro'l o'ynaydi.

Umuman olganda suvenirlarning ko'plab turlari mavjud. Bir necha olimlar ularning turlari bo'yicha o'z izlanishlarini olib borib, suvenirlarning xususiyatlari va funksiyalariga qarab ularni guruhlarga ajratishga xarakat qilishgan. ⁷⁴Ko'pgona tadqiqotlarda suvenirlar ikki yirik guruhga bo'linganini guvohi bo'lamiz. Bular ramziy va foydali suvenirlardir. Ramziy

⁷⁴ Handwritten-typeface-effect-of-souvenirs--The-influen_2024_Journal-of-Hospit.pdf

suvenirlar ma'lum joyning o'ziga xos xususiyati hamda mahalliy madaniyatini o'zida aks ettiradi. Foydali suvenirlarning ahamiyati ularning yaroqliligi va instrumental funksiyasidadir.

Bugungi kunda suvenirlarning istemol maqsadi ham dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, suvenirlar istemolining ikki xil maqsadi keng tarqalgan ya'ni o'zi uchun sotib olish hamda yaqinlariga sovg'a qilish maqsadida xaridni amalga oshirish.

Yurtimiz O'zbekistonda ham suvenirlarning ahamiyatligi e'tiborga olinib, milliy suvenirlar festivali bo'lib o'tdi. ⁷⁵2021-yilning 28-oktabr sanasida respublikaning barcha hududlarida "Milliy suvenirlar" festivali bo'lib o'tdi. Festival O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etildi. Festivalning ochilish va yakuniy qismi marosimlari Toshkentdagi O'zbekiston amaliy san'ati va hunarmandchiligi tarixi davlat muzeyida bo'lib o'tdi. Madaniy meros agentligi matbuot xizmatidan olingan xabarlarga ko'ra, festivalning o'tkazilishidan asosiy maqsad ichki va tashqi turizmni yanada rivojlantirish hamda yurtimizning boy madaniy-tarixiy merosini vatandoshlarimiz va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlar o'rtasida keng targ'ib qilishdan iborat edi.

Mazkur festival mamlakatimizning xavfsiz sayohat va dam olish maskani sifatidagi nufuzini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga munosib hissa qo'shgani aniqdir. Shuningdek, mahalliy hunarmandlar tomonidan yaratilgan milliy mahsulotlar savdosi yo'lga qo'yilsa, respublikamiz muzeylari va madaniy meros ob'ektlariga tashrif buyuruvchilar bevosita ushbu mahsulotlarni targ'ib qilishlarini ham alohida ta'kidlash joiz. Bu esa, o'z navbatida, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hunarmandlar bandligini ta'minlash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Festival yakunlariga ko'ra, har bir viloyat uchun "Eng yaxshi esdalik sovg'asi" nominatsiyasi bo'yicha sovrinlar aniqlanadi, g'oliblar Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan festivalning yopilish marosimida e'lon qilindi.

O'zbekistondagi suvenirlar haqidagi ma'lumotlarni online manbalar orqali ham olishimiz mumkin. ⁷⁶O'zbekistonda Suvenirlar do'konlari, kompaniyalarning kontakt ma'lumotlari keltirilgan eng to'liq ro'yhat eng to'liq online manba sifatida Yellowpages.uz ni misol qilib keltirishimiz mumkin. Yellowpages.uz O'zbekistondada Suvenirlar do'konlari bo'limining so'rov ma'lumoti keltirilgan sahifadan iborat. Bu katalog foydalanuvchilarga souvenir do'konlarining manzil va telefonlari, joylashuvi va kontaktlari, hamda boshqa kerakli ma'lumotlarni topishga yordam beradi. Ushbu online manbadan foydalanuvchi shaxs qisqa fursat ichida Suvenirlar do'konlari bo'limiga oid bo'lgan kerakli ma'lumotlarni olishi mumkin, ularga yetib olish uchun yordam beruvchi mo'ljallar ham shu jumladan.

Quyida ⁷⁷yurtimiz viloyatlari souvenir va sovg'alarining ayrim o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berib o'tamiz. Samarqand viloyati souvenir do'konlari yog'ochdan, matodan va boshqa turli materiallardan yasalgan hunarmandchilik mahsulotlarining ishqibozlari uchun mo'ljallangan. Odatiy an'anaga ko'ra, ustaxonalarning asosiy qismi eski madrasalarda joylashgan bo'lib, barcha hunarmandchilik mahsulotlari mahalliy hunarmandlar tomonidan qo'lda yasaladi.

Ammo Samarqandda odatiy suvenirlardan tashqari, siz mamlakatning boshqa hududlarida topa olmaydigan yana bir nechta xususiyatlarni ko'rishingiz mumkin. Avvalo, sizga Bibixonim masjidi yonida joylashgan, eski Samarqandning markazida bo'lgan Siyob bozoriga

⁷⁵ O'zbekistonda Milliy suvenirlar festivali bo'lib o'tadi | Uzbekistan Travel

⁷⁶ Suvenirlar do'konlari O'zbekistonda mintaqasida - kompaniyalar va tashkilotlar katalogi, ularning manzillari, telefonlari, kontaktlarini Yellow Pages Uzbekistan, O'zbekiston Sarii Sahifalari ma'lumotnomasida to'pasiz.

⁷⁷ Samarqand | Sayyohlar, sayohatchilar uchun shahar qo'llanmasi | Samarqanddagi qiziqarli, mashhur joylar va diqqatga sazovor joylar | Samarqand shahri haqidagi fotosuratlar, videolar, xaritalar, sharhlar va sayyohlik maslahatlarini ko'ring | Uzbekistan Travel

tashrif buyurishingizni maslahat beramiz. Ushbu bozorda siz juda ko'p miqdorda quritilgan mevalar, yong'oqlar va shirinliklarni topishingiz mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan narsalar qatorida Samarqand kulchasi va Samarqand holvasini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, Samarqand viloyatida "Meros" nomli qog'oz fabrikasi ham mavjud. Uning ustalari tut po'stlog'idan qog'oz tayyorlash usulini saqlab qolishgan. Ushbu usul X-XI asrda paydo bo'lib o'zining bardoshlilik bilan ajralib turgan. Ushbu fabrikada siz shahar rasmi tasvirlangan otkritkalar, yon daftarlar, niqoblar va hatto noodatiy qog'ozli ko'ylaklar, qo'g'irchoqlar va sumkalar kabi buyumlarni sotib olishingiz mumkin.

Boshqa viloyatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Aytaylik buxoro viloyatiga, ⁷⁸ushbu maskan ko'chalarida ko'plab turli xil esdalik do'konlarini va ustaxonalarini topishingiz mumkin. Ba'zida barcha suvenirlar bir xil bo'lib tuyuladi, ammo bu bunday emas! Har bir sotuvchida insonni ajablantiradigan narsa topiladi. "Buxoro – O'zbekistonning to'quv poytaxti" deya tan olingan. Agar siz zamonaviy va didli, hamda milliy kiyim-kechaklar olishni istasangiz, unda, albatta, Buxoroga sayohatni amalga oshirishingiz lozim. Do'konlarning asosiy joylashuviga keladigan bo'lsak, ularning aksariyati Labi-Hovuz oldida va mashhur Poi Kalon ansambli yonidagi savdo toqlarda joylashgan. Tayyor kiyimlar bilan bir qatorda siz iqtisodiy matosini o'zini ham xarid qilishingiz mumkin. Bunday matoni Armani savdo uyi o'z kolleksiyasida ham ishlatgan. U arzon emas albatta, lekin o'z narxiga arziydi. Buxoro gilamlari bilan ham mashhur. Gilamlarning sifati Hindiston, Pokiston va Eronnikidan kam emas va ba'zan ulardan ham yaxshiroq. Ekzotika shinavandalari uchun Buxoro maxsus mahorat bilan yasaladigan cholg'u asboblari yoki qo'lda yasalgan pichoqlarni taklif qilishi mumkin.

Xorazm viloyatining suvenirlari haqida gap ketar ekan, albatta cho'ogirmalar haqida so'z ochmasdan iloj yo'q. ⁷⁹Xorazmda cho'girma telpaklar tayyorlash kasbi bilan o'tgan asrda 60 nafar usta shug'ullangan. Ilgari cho'girmasiga qarab odamning mansabini bilib olish mumkin bo'lgan. Aholining ko'pchilik qismi asosan qora, qo'ng'ir, sheroziy rangli cho'girma kiygan.

Xulosa va takliflar.

Keng qamrovli o'rganilgan taxlillar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasi rivojlanishi uchun uning asosiy tarkibiy qismlaridan bo'lmish 4 yo'nalish ya'ni transport xizmati, chakana savdo (suvenirlar) do'konlari, manzilgohlar va faoliyatlar, mehmondo'stlik sanoati (joylashtirish vositalari va ovqatlantirish xizmati) yuksalishini ko'zda tutishimiz kerak. Hamda yuqorida sanab o'tilgan 4 yo'nalishning turizm sohasidagi o'rni va ahamiyatligini teng deb xisoblash maqsadga muvofiqdir. Chunki turizm shunday sohaki uning barcha segmentlari bir xil darajada rivojlangandagina o'zining istiqbolli nuqtasiga erishishi mumkin.

Chakana savdo (suvenirlar) do'konlari segmentining muhimlik darajasiga keladigan bo'lsak, soha rivoji uchun quyidagilarni taklif qila olishimiz mumkin.

- Har bir viloyatning mahalliy o'ziga xos madaniyati o'rganib chiqilishi;
- Ushbu o'ziga xoslikdan kelib chiqqan holda mahalliy suvenirlar ishlab chiqilishi;
- Do'konlarda suvenirlar ma'nosi jamlangan kitobchalar tashkil etilishi;
- Miliy suvenirlarga bag'ishlangan festivallar sonini ko'paytirish.

O'ylaymizki ushbu takliflar amaliyotga joriy etilsa ko'zlangan maqsadga olib boruvchi yo'llardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Jumepamyra/Reference:

Abdukhamidov, A. S., Makhmudova, A. P., & Mukhammadiev, N. (2022). Directions for the development of tourist routes of buddhist monuments and the formation of attractive tourist products. *Builders Of the Future*, 2(02), 146-153.

⁷⁸ Buxoro | Sayyohlar, sayohatchilar uchun shahar qo'llanmasi | Buxorodagi qiziqarli, mashhur joylar va diqqatga sazovor joylar | Buxoro shahri haqidagi fotosuratlar, videolar, xaritalar, sharhlar va sayyohlik maslahatlarini ko'ring | Uzbekistan Travel

⁷⁹ Cho'girma | Xiva (khivamuseum.uz)

David K. Hayas, Jack D. Ninemeier, Allisha A. (2017) "Hotel operation management" Miller third edition.

Mamatqulov X.M. (2011) "Turizm infratuzilmasi" o'quv qo'llanma, Toshkent.

Po'latov M.E., Amriddinova R.S., Norqulova D.Z., Talibova A.Yu. (2022) "Mehmonxonalarda kasbiy etika" Samarqand.

Suyunovich, T. I., & Erkin, G. (2022). Possibilities to increase the multiplicative efficiency of tourism through digital technologies in new uzbekistan. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(8), 74-80.

Tuxliyev I.S., Abduhamidov S.A. (2021) "Turizm nazariya va amaliyot" darslik.